

2. Lyons J. Semantics. – Cambridge, 1977.
3. Bloomfield L. Language. – New York, 1933.
4. Виноградов В.В. Русский язык. Лексикология и лексикография. – М., 1947.
5. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – М., 1974.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент.
7. Гуломов А. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент.

Sobirova Feruza Islomjon qizi



**“BIZ” VA “ULAR” OPPOZITSIYASI ORQALI MANIPULYATSIYA:
PRAGMATIK YONDASHUV**

<https://zenodo.org/records/19842488>

Annotatsiya: Mazkur maqolada diskursda keng qoʻllaniladigan “biz” va “ular” oppozitsiyasi orqali amalga oshiriladigan manipulyativ strategiyalar pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy, ijtimoiy va ommaviy axborot vositalari diskurslarida ushbu oppozitsiyaning kommunikativ vazifalari, maqsadli auditoriyaga psixologik taʼsir koʻrsatish mexanizmlari hamda nutq aktlari bilan bogʻliqligi yoritiladi. Shuningdek, “biz” konsepti orqali ijobiy identifikatsiya, “ular” konsepti orqali esa salbiy obraz shakllantirish jarayoni pragmatik omillar nuqtayi nazaridan izohlanadi. Tadqiqot natijalari manipulyativ diskursni aniqlash va tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: diskurs, pragmatika, manipulyatsiya, “biz”, “ular”, identifikatsiya

**МАНИПУЛЯЦИЯ ЧЕРЕЗ ОППОЗИЦИЮ «МЫ» И «ОНИ»:
ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД**

Аннотация: В данной статье с позиций прагматического подхода анализируются манипулятивные стратегии, реализуемые посредством оппозиции «мы» и «они», широко используемой в дискурсе. В исследовании освещаются коммуникативные функции данной оппозиции в политическом, социальном и медийном дискурсах, механизмы психологического воздействия на целевую аудиторию, а также её взаимосвязь с речевыми актами. Кроме того, с точки зрения прагматических факторов объясняется процесс формирования позитивной идентификации посредством концепта «мы» и создания негативного образа через концепт «они». Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для выявления и анализа манипулятивного дискурса.

Ключевые слова: дискурс, прагматика, манипуляция, «мы», «они», идентификация

MANIPULATION THROUGH THE “WE” AND “THEY” OPPOSITION: A PRAGMATIC APPROACH

Abstract. This article analyzes manipulative strategies implemented through the widely used “we” and “they” opposition in discourse from a pragmatic perspective. The study examines the communicative functions of this opposition in political, social, and mass media discourses, the mechanisms of psychological influence on the target audience, as well as its connection with speech acts. In addition, the process of constructing positive identification through the concept of “we” and forming a negative image through the concept of “they” is explained from the standpoint of pragmatic factors. The findings of the study are of significant theoretical and practical importance for identifying and analyzing manipulative discourse.

Keywords: discourse, pragmatics, manipulation, we, they, identification

Kirish

Zamonaviy kommunikativ makonda til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ongga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va muayyan g'oyalarni singdirishning samarali instrumentiga aylangan. Ayniqsa, siyosiy, ijtimoiy va ommaviy axborot vositalari diskursida til birliklarining tanlanishi va qo'llanishi bevosita manipulyativ maqsadlarga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, “biz” va “ular” oppozitsiyasi asosida qurilgan nutqiy strategiyalar auditoriya ongida “o'z” va “begona” tushunchalarini shakllantirish orqali muayyan ijtimoiy pozitsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Biz” va “ular” oppozitsiyasi lingvistik jihatdan shaxs olmoshlari orqali ifodalangan bo'lsa-da, pragmatik jihatdan u ancha keng ma'noni qamrab oladi. Ushbu oppozitsiya yordamida muallif yoki so'zlovchi o'zini muayyan ijtimoiy guruh bilan identifikatsiya qiladi va tinglovchini ham shu guruhga mansublik hissiga undaydi. Natijada “biz” konsepti ijobiy, ishonchli va legitim obraz sifatida namoyon bo'lsa, “ular” konsepti ko'pincha salbiy, xavfli yoki yot kuch sifatida talqin etiladi. Bunday qarama-qarshilik esa manipulyativ diskursning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Pragmatik yondashuv til birliklarining real kommunikativ vaziyatdagi maqsadga yo'naltirilgan qo'llanishini tahlil qilishga imkon beradi. Aynan pragmatika doirasida nutq aktlari, implikatura, presuppozitsiya va kontekst omillari orqali “biz” va “ular” oppozitsiyasining yashirin ma'nolari ochib beriladi. So'zlovchi tomonidan tanlangan lingvistik vositalar auditoriyaning hissiy holatiga, qadriyatlariga va ijtimoiy qarashlariga ta'sir ko'rsatib, ularni muayyan xulosaga yetaklaydi. Shu sababli pragmatik tahlil manipulyatsiyaning til orqali amalga oshirilish mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globalashuv va axborot oqimi jadallashgan sharoitda “biz” va “ular” oppozitsiyasi nafaqat siyosiy nutqlarda, balki ijtimoiy tarmoqlar, reklama matnlari va ommaviy axborot vositalarida ham faol qo'llanilmoqda. Bu esa mazkur hodisani ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, uning pragmatik xususiyatlarini aniqlash va manipulyativ ta'sir darajasini baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Shunday ekan, mazkur tadqiqot til va jamiyat

o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yoritish, shuningdek, manipulyativ diskursni anglash va tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunoslik, linguistika va diskurs tahlili sohasida adabiyotlar “biz” va “ular” qarama-qarshiligi orqali amalga oshiriladigan manipulyatsiyalarni chuqur yoritadi. Ushbu qarama-qarshilik — til orqali ijtimoiy guruhlarni ajratish, identifikatsiya yaratish va auditoriyani manipulyatsiya qilishning asosiy vositasi sifatida ko'riladi. Diskurs va pragmatika nazariyasi ushbu hodisaning mexanizmlarini tushunishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Avvalo diskurs konsepti o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi: u nafaqat matn yoki nutq, balki ijtimoiy kontekst va kommunikativ maqsadlarni ham o'z ichiga oladi. I.Y.Niyozov “Tilshunoslikda “diskurs” tushunchasi va uning shakllari” maqolasida diskurs tushunchasining til va kontekst o'rtasidagi murakkab dinamik munosabatni o'rganish orqali shakllanishini ko'rsatadi. Bu diskursning tilni kontekstual ma'nolarga birlashtirib, kommunikativ maqsadni amalga oshirish imkonini berishini anglatadi. Shuning uchun “biz” va “ular” qarama-qarshiligi ham faqat grammatika emas, balki kontekstual ma'noga ega kommunikativ strategiya sifatida ko'riladi.

Z.Rasulov va O.G'ayratova esa diskursni lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qiladi, unda kommunikativ niyat, kontekst va pragmatik vositalar muhim rol o'ynaydi. Ular fikricha, diskurs amalga oshirilayotgan kontekst, so'zlovchining niyati va pragmatik strategiyalar tahlili orqali manipulyativ effektlar ochib beriladi. Bu yondashuv “biz” va “ular” qarama-qarshiligi orqali amalga oshiriladigan manipulyatsiyalarning til mazmunidan tashqari kommunikativ funksiyalarini aniqlashda foydali.

Shuningdek, lingvopragmatik yondashuv umuman til va pragmatika munosabatiga e'tibor qaratadi. G.Rahmatova maqolasida lingvopragmatika tilning aniq kommunikativ kontekstlarda qanday qo'llanilishini tushunishga yordam berishini ta'kidlaydi. Bu shuni anglatadiki, til birliklari kontekstdan ajralib bo'lmaydi va til orqali amalga oshiriladigan manipulyatsiyalar ham kontekstga bog'liq ravishda baholanadi.

Diskurs tahlilining jadal rivojlanishiga qaramay, manipulyatsiya hodisasi ko'pincha siyosiy kommunikatsiya kontekstida o'rganiladi. Manipulyativ mexanizmlar siyosiy nutqda mavhum emas - ular til vositalari orqali auditoriyani targ'ibot, mobilizatsiya yoki qarshi tomon haqida salbiy tasavvur yaratishga yo'naltiriladi. Masalan, zamonaviy siyosiy diskurs tahlilida grammatik vositalar, jumladan “biz”, “bizning”, “ular” kabi shaxs olmoshlari manipulyatsiya qurollari sifatida tahlil qilinadi. Ushbu olmoshlar auditoriya ongiga ma'lum guruhga mansublikni kuchaytirish yoki raqib guruhni tashqi, salbiy obraz sifatida konstrukt qilish uchun ishlatiladi. Bu nuqta “biz” va “ular” oppozitsiyasining manipulyativ funksiyasini aniq ochib beradi: pronounlar orqali ijtimoiy identitet yaratiladi va qarama-qarshilik mustahkamlanadi.

Bundan tashqari, politikalashgan nutqda manipulyatsiya fenomeni ham alohida o'rganiladi. Gavrikova tomonidan olib borilgan tadqiqot siyosiy diskursda manipulyatsiyaning mexanizmlarini yoritadi, u nutq vositalarining auditoriyani ijtimoiy

ongiga ta'sirini o'rganadi. Bu ish manipulyatsiya kontseptsiyasini nafaqat til, balki sotsiopsixologik jarayon sifatida tushunishga imkon beradi. Bunday nuqtai nazar "biz" va "ular" oppozitsiyasining nafaqat lingvistik, balki sotsiopsixologik strategiya sifatida qo'llanilishini ko'rsatadi.

Kritik diskurs tahlili ("critical discourse analysis") diskursning ijtimoiy hokimiyat va ideologiyalar bilan uzviy bog'liqligini yoritadi. Van Deyk (Teun A. van Dijk) kabi olimlar diskursni ijtimoiy hokimiyat mexanizmi sifatida ko'rib, "biz" va "ular" kontrastini ijtimoiy g'ruplar orasidagi farqlash vositasi deb ta'kidlaydi. Bu yondashuv orqali til hokimiyat strukturalarini ko'rsatib beradi: til birliklari orqali guruhlar orasida ierarxik farqlar yaratiladi. Van Deykning yondashuvi "biz" va "ular" kabi lingvistik shakllarning ijtimoiy real voqelikni qanday konstrukt qilishi va shu orqali auditoriyani ma'lum ideologik xulosalarga yetaklashini ochib beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi adabiyotlar diskurs tahlili va pragmatika sohasida "biz" va "ular" oppozitsiyasini yoritishda murakkab, ko'p qirrali yondashuvlarni taklif etadi. Diskurs konseptidan boshlab, lingvopragmatik tahlil, siyosiy kommunikatsiya va kritik diskurs yondashuvlarigacha bo'lgan asarlar bu fenomenni til orqali manipulyatsiya kontekstida ochib beradi. Adabiyotlarda ko'rsatib o'tilganki, bu qarama-qarshilik til shakllarining semantik ma'nosidan farqli ravishda ularning kommunikativ va sotsiopsixologik funksiyalarini tahlil qilishni talab qiladi. Shu asosda maqolaning keyingi bo'limlarida "biz" va "ular" oppozitsiyasining real diskurs namunalarida pragmatik tahlili olib boriladi.

Muhokama va natijalar.

Ushbu tadqiqot pragmatik yondashuv asosida diskurs tahlili metodlari orqali olib boriladi, bunda lingvistik birliklarning kontekst va kommunikativ maqsadga bog'liqligi tahlil qilinadi. Diskurs tahlili sohasida tanlangan metodlar orqali matnlardagi "biz" va "ular" oppozitsiyasining ijtimoiy identifikatsiya va manipulyativ funksiyalari aniqlanadi, shu jumladan nutq aktlari va kontekstual implikaturalar o'rganiladi. Tadqiqotda sifatli tahlil yondashuvi qo'llanilib, konkret diskurs misollari asosida lingvopragmatik parametrlar tahlil qilinadi, jumladan semantik farqlar, kommunikativ niyat va ijtimoiy vaziyat bilan bog'liqliklari aniqlanadi. Ma'lumotlar yig'ish uchun siyosiy nutqlar, ommaviy axborot vositalari matnlari va ijtimoiy tarmoq diskurslari namunalar sifatida tanlanadi, tahlil jarayonida kontekst, auditoriya va kommunikativ effekt omillari hisobga olinadi. Natijada metodologiya manipulyatsiya mexanizmlarini ilmiy asosda ochib berish va diskurs tahlilini amaliyotda qo'llash uchun moslashtirilgan yondashuvni tavsiflaydi.

Mazkur maqolada "biz" va "ular" qarama-qarshiligi asosida shakllangan til birikmalari kontekstida manipulyatsiyaning pragmatik mexanizmlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida siyosiy nutqlar, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan matnlar hamda jamoatchilik debatlarini tahlil uchun asosiy empirik material sifatida tanlandi. Ushbu manbalarni tahlil qilish orqali auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan turli manipulyativ strategiyalar aniqlanib, ularning nutq jarayonidagi funksional xususiyatlari yoritib berildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "biz" va "ular" olmoshlari faqat deytik, ya'ni ma'lum bir guruhni ko'rsatish vazifasinigina bajaraydi, balki auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatishga xizmat qiluvchi muhim pragmatik vosita sifatida ham qo'llanadi. Siyosiy diskursni tahlil qilish jarayonida shaxs olmoshlarining "do'st — dushman" qarama-qarshiligini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatilishi yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, inklyuziv "biz" shakli birlik va hamjihatlikni ifodalasa, eksklyuziv "biz" ayrim holatlarda muayyan guruhni ajratib ko'rsatish va cheklash funksiyasini bajaradi.

Quyidagi jadvalda "biz" va "ular" olmoshlari asosida topilgan manipulyativ funksiyalar va ularning kommunikativ ta'sir mexanizmlari ta'riflangan:

1-jadval

"Biz" va "Ular" olmoshlarining manipulyativ effektlari bo'yicha tahliliy jadval

Tahlil o'lchovi	"Biz" pronouni ta'siri	"Ular" pronouni ta'siri	Natija (manipulyativ effekt)
Identifikatsiya va birlik hissi	Auditoriyani ijobiy guruhga bog'lash; umumiy maqsadni ta'kidlash	Tashqi guruhni ajratish	Auditoriyada "bizlar" kontrasti orqali sotsiopsixologik ajratish kuchayadi
Emotsional yuki	Ijobiy hissiyotlarni uyg'otadi (qo'llab-quvvatlash, birdamlik)	Salbiy hissiyotlar (shubha, xavotir, qarama-qarshilik)	Natijada hissiy manipulyatsiya vujudga keladi
Hokimiyat va legitimlik	Yetakchi yoki etakchi guruhni normativ ko'rsatadi	"Ular"ni rad etish yoki to'sqinlik sifatida ko'rsatadi	Guruhning nuqta nazarlarini mustahkamlash orqali ijtimoiy hokimiyatni qo'llabquvvatlash
Ijtimoiy stereotiplar	"Biz" pozitiv stereotiplarni faollashtiradi	"Ular" negativ yoki stereotipik atributlar bilan bog'lanadi	Ijtimoiy stereotiplar orqali qaramaqarshilikni kuchaytiradi

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, "biz" pronouni auditoriyani ma'lum ijtimoiy birlik sifatida qabul qilishga undaydi, shu bilan birga "ular" pronouni raqib yoki tashqi guruh obrazini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada bu pronounlar yordamida so'zlovchi yoki matn ijodkori auditoriyani manipulyativ tarzda yo'naltiradi.

Misol sifatida 2019-yilgi AQSh prezidentlik dehatlari tahlili "usversusthem" polarizatsiyasi siyosiy nutqda qanday ishlatilishini ko'rsatadi: dehatlarda bu qaramaqarshilik

pronounlar bilan birga maxsus lug‘at va sloganlar orqali auditoriyaning pozitsiyasini qizitadi va manipulyatsiya qiladi.

Bundan tashqari, siyosiy nutqlarda olmoshlar (pronounlar) kontekst bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, Barack Obama nutqlarida **“biz”** olmoshidan ko‘proq universal birdamlik va ijobiy maqsadda foydalanilgan, shuningdek, auditoriya bilan birlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, olmoshlar, ayniqsa **“biz”**, **kirituvchi** (inkluziv) va **kiritmaydigan** (ekskluziv) kontekstlarda ham qo‘llaniladi; bu esa pragmatik tahlil metodlari orqali aniqlanishi mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, til birliklarining manipulyativ funksiyalari nutq aktlari, emotsional kontekst va guruh identiteti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular faqat semantik ma‘nodan tashqari pragmatic aspektlarda o‘rganilishi zarur. Bu **“biz”** va **“ular”** kontrastini tizimli pragmatik tahlil qilganda uning manipulyativ potentsiali chuqurroq ochiladi.

2-jadval.

“Biz” va “ular” olmoshlarining pragmatik manipulyativ funksiyalari

Tahlil parametri	Manipulyativ rol	Misol konteksti	Tarmoq/Ma nba
Identifikatsiya	Auditoriyani mushtarak guruhga birlashtirish	Siyosiy nutqlar	Barak Obama debatlar
Qarama-qarshilik	Tashqi yoki raqib guruhni ajratish	Prezident debatlar	Bush va Gore debatlar
Emotsional effekt	Ijobiy va salbiy emotsiyalarni uyg‘otish	Siyosiy nutqlar	Siyosiy kommunikatsiya tahlili
Legitimitet	Guruhni kuchli ijtimoiy hokimiyat sifatida ko‘rsatish	Siyosiy strategiyalar	Siyosiy diskurs tahlillari umumiy

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, **“biz”** va **“ular”** qarama-qarshiligi til birliklari auditoriya ongiga ta’sir qilishda samarali manipulyativ strategiya sifatida ishlatiladi. Bu olmoshlar nafaqat guruh identifikatsiyasini kuchaytiradi, balki emotsional va sotsiopsixologik manipulyatsiyani amalga oshirishda ham asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu maqolada **“biz”** va **“ular”** oppozitsiyasi orqali til vositalari yordamida amalga oshiriladigan manipulyativ strategiyalar pragmatik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tahlil ko‘rsatdiki, **“biz”** va **“ular”** olmoshlarining qo‘llanilishi nafaqat tilning sintaktik yoki semantik jihatlariga bog‘liq bo‘lib, balki ularning kommunikativ niyat, kontekst va auditoriya psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlangan. Shu tarzda olmoshlar ijtimoiy guruh identitetini shakllantirish, hissiy reaksiyalarni boshqarish va qarama-qarshilikni kuchaytirish vositasi sifatida manipulyativ rol ni ijro etadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, siyosiy diskurslarda “biz” pronouni tinglovchilarni umumiy maqsadga yo‘naltirish, ularni ichki guruh hissi bilan birlashtirish maqsadida ishlatiladi, shu bilan birga “ular” olmoshi qarshi yoki tashqi guruhni ko‘rsatish orqali stereotipik qarashlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu “bizlar” polarizatsiyasi auditoriyani mantiqiy ajratish orqali uning fikrlarini manipulyatsiya qilishda samarali vositaga aylanadi, chunki u tinglovchilarni ikki tomonlama qarama-qarshilikka yo‘naltiradi va murakkab nuqta nazarlarni kamaytiradi.

Shuningdek, pragmatik tahlil shuni ko‘rsatdiki, olmoshlarning manipulyativ ta’siri konkret kontekstga bog‘langan bo‘lib, ularning lingvistik funksiyalari kommunikativ maqsadga qarab sezilarli darajada o‘zgaradi. Masalan, siyosiy debatlarida bu olmoshlar so‘zlovchining auditoriya bilan aloqasini mustahkamlash yoki raqibni rad etish strategiyalarida asosiy vositaga aylanadi, shuningdek, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi bo‘linishni chuqurlashtiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, lingvistik birliklar — olmoshlar, emotiv leksika, ibora tuzilmalari va boshqa diskurs vositalari — til orqali manipulyatsiya mexanizmlarini shakllantirishda birgalikda ishlaydi. Bu esa diskursni tahlil qiluvchi tadqiqotchilar uchun pragmatik yondashuvni qo‘llash zaruratini yanada oshiradi, chunki pragmatika kontekst, niyat va tinglovchi ta’sirini bir butun sifatida ko‘rib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari “biz” va “ular” oppozitsiyasining manipulyativ funksiyalarini pragmatik kontekstda tushunish til orqali ijtimoiy ong va qarashlarni shakllantirish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bu esa til, jamiyat va kommunikatsiya o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi va diskurs tahlilining keyingi bosqichlari uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Xulosa

Mazkur maqolada diskursda keng qo‘llaniladigan “biz” va “ular” oppozitsiyasi orqali amalga oshiriladigan manipulyativ strategiyalar pragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy, ijtimoiy va ommaviy axborot vositalari diskurslarida ushbu oppozitsiyaning kommunikativ vazifalari, maqsadli auditoriyaga psixologik ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari hamda nutq aktlari bilan bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, “biz” konsepti orqali ijobiy identifikatsiya, “ular” konsepti orqali esa salbiy obraz shakllantirish jarayoni pragmatik omillar nuqtayi nazaridan izohlanadi. Tadqiqot natijalari manipulyativ diskursni aniqlash va tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Power*. New York: Palgrave Macmillan.
2. Tajfel, H., & Turner, J. C. (1986). The social identity theory of intergroup behavior. In *Psychology of Intergroup Relations*. Chicago.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Fairclough, N. (1995). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. London: Longman.

5. Niyozov, I. Y. Tilshunoslikda “diskurs” tushunchasi va uning shakllari (maqola). *tiladabiyot.uz*.
6. Rasulov, Z., & G‘ayratova, O. (2025). Diskurs — lingvopragmatik yondashuv obyektini sifatida. *Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 5(5), 365–368. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N60>
7. Rahmatova, G. Lingvopragmatik yondashuv va uning variatsiyalari. *Global lingvistika: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar*, 1(2), 300–303. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15442714>
8. Gazarova, D. Pragmatic and manipulative potential of personal pronouns in political discourse. *Bulletin of Yerevan University H: Russian Philology*, 8(1), 43–56.
9. Gavrikova, O. E. (2017). Fenomen manipulyatsii v politicheskoy diskurse. *Teoriya yazyka. Filologicheskiy aspekt*, (12). Retrieved from <https://scipress.ru/philology/articles/fenomen-manipulyatsii-v-politicheskoy-diskurse.html>
10. Van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Power*. Palgrave Macmillan.
11. Mukhortov, D. S., & Zhovner, E. A. (2019). US versus them polarization in the US presidential debates of 2000. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, 10(2), 499–512. <https://doi.org/10.22363/231322992019102499512>
12. Romadlani, M. (2021). Personal pronouns in American presidential political discourse. *Indonesian Journal of EFL and Linguistics*, 6(1). <https://doi.org/10.21462/ijefl.v6i1.356>

O‘ktamova Moxigul Xamidullo qizi, FarDU katta o‘qituvchisi,
uktamovamoxigul@gmail.com

Rasuljonova Zahrobonu Muhammadyusuf qizi, FarDU talabasi,
zahrorasuljanova@gmail.com



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ZAMON KATEGORIYASINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

<https://zenodo.org/records/19842536>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ingliz va O‘zbek tillaridagi zamonlar chog‘ishtirma tahlil qilingan. Maqolada har ikki tilda zamonlarning grammatik tuzilishi, ma’no ifodasi hamda qo‘llanishidagi o‘xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Maqolada ingliz tilidagi asosiy zamon shakllari o‘zbek tilidagi muqobil zamonlar bilan qiyoslab o‘rganilgan hamda til o‘rganishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili zamonlari, O‘zbek tili zamonlari, o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, qiyosiy tahlil, grammatika, fe‘l shakllari, vaqt ko‘rsatkichi, sintaksis.